

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor-o'qituvchilarining Oltinsoy tuman 25-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2024-2025 o'quv yilida bitiruvchi maktab o'quvchilarini oliy o'quv yurtlariga jalb etish va ularga berilgan imtiyozlarni targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

2024 yil 2-noyabr

Oltinsoy tumani

Ishtirok etuvchilar:

1. Oltinsoy tumani 25- umumiy o'rta ta'lim direktori I.Alimardonov
2. DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor o'qituvchilari B.S.Nazirov, A.F.Jumayev, J.N.Tursunov
4. 25-maktab o'qituvchilari va bitiruvchi yoshlari.

Kun tartibi:

1. "Yoshlar yurt tayanchi" mavzusida tadbir o'tkazish.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchi B.S.Nazirov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi.



Ma'lumki, so'nggi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar bo'lyapti. So'nggi yillarda ta'lim sifatiga e'tibor umumxalq harakatiga ham aylanib bormoqda. Faxr bilan aytish kerak, bugun yurtimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli o'quvchilarimiz bunga javoban xalqaro olimpiadalar, turli tanlovlarda O'zbekistonimiz sharafigini munosib himoya qilmoqda. Bilim

va iqtidorlarini namoyon etib, ko'ngillarga quvonch ulashmoqda. Yakuniga yetayotgan o'quv yili so'ngida yana bir bora O'zbekiston yoshlari kelajagiga, kamol topishiga birdek mas'ul ekanmiz, nafaqat maktabda ta'lim olish davrida, balki ta'til vaqtida ham farzandlarimizga katta e'tibor qaratish barchamizning burchimizdir. O'quvchilarga o'quv yilini muvaffaqiyatli tamomlaganligi bilan yana bir karra qutlab, barchaga Vatanimiz rivojiga o'z hissasini qo'shuvchi barkamol avlod bo'lib yetishishini tilab qolaman.



B.Nazirov so'zi davomida oliy ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar, abeturyentlarga berilayotgan imtiyozlar haqida ma'lumot berish bilan birga, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidagi mavjud yo'nalishlar, proffesor-o'qituvchilarning o'quv-ilmiy faoliyatlari, fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaring o'rni, institutda talabalarning o'qish va dam olishlari uchun tashkil etilgan sharoitlar, turli xil sport va fan to'garaklarining tashkil etilganligi haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijasida hozirgi kunda respublikamizda oliy ta'lim muassasalari soni 211 tani tashkil etadi. Ular – 112 ta davlat, 30 ta xorijiy va 69 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 43 foizga yetkazildi.



B.Nazirov so'zi yakunida 2024/2025 o'quv yilida maktabni tamomlayotgan bitiruvchilarning barchasi oliy o'quv yurtlariga o'qib, vatanimiz ravnaqini yuksaklarga ko'taradigan farzand bo'lishini tiladi. Kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar, fidoiy, mard va jasur bo'lish bilan birga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan yosh va istiqbolli xodim bo'lib yetishishiga ishonch bildirildi.

Shundan so'ng, bitiruvchi yoshlarni oliy o'quv yurtlariga tayyorgarlik holatini sinash maqsadida OTM larga kirish uchun o'tkaziladigan majburiy fanlardan (Ona tili, Matematika, O'zbekiston tarixi) sinov testlari o'tkazildi hamda natijalar tahlil qilinib, kerakli tavsiyalar berildi.

Oltinsoy tumani 25-umumiy o'rta
ta'lim maktab direktori:



I. Alimardonov

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Tarix va falsafa kafedrası

professor o'qituvchilari:

B.S. Nazirov

A.F. Jumayev

J.N. Tursunov